

TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK-PSXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Samarqand viloyati Ishtixon tumani

MMTB qarashli 14- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Abilova Mahbuba Yangiboevna

Annotatsiya: Hozirgi zamonaviy jamiyat oliy ta'limdan keying ta'limga boy ichki madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk ijtimoiy faol shaxslarni talab qilmoqda. Chunki shaxsiy sifatlar pedagogik kasb va maktab davrida shakllangan shaxs xarakteri o'rtasidagi o'zaro ta'sirni oldindan ko'rishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich talim, tarbiya, ketma-ketlik, izchillik, o'xshashlik.

Maktab va unda o'qitiladigan o'quv predmetlari bolaning murg'ak ongida hayot haqida mavjud jo'ngina tasavvurlar sirasiga yangidan yangi ma'lumot, tasavvur, tushunchalarni ketma-ket, izchillikda qo'shib boraveradiki, o'quvchi tafakkurida ko'rgan, o'qigan, eshitganlarini qayta ishlash, qayta ishlash uchun esa ularni tafakkurida borlariga bog'lab saralash, eng keraklisini ajratib olish va esda saqlashga harakat qilish jarayoni o'quvchi miyasida doimiy harakatda bo'lishi zarur. Zero, mazkur bog'lanishlar tufayli ongda paydo bo'lgan muayyan tasavvurlar o'xshashlik, yondoshlik va qarama-qarshilik belgilariga ko'ra, shunga bog'liq bo'lgan boshqa tasavvurlarni hosil qiladi. Barcha zamonlarda ham ta'lim berish ishi bilan mashg'ul haqiqiy ustozlar, muallim-u muallimalar ta'lim oluvchida, avvalo, assotsiativlikning mana shu uch turini shakllantirish va uni avaylab rivojlantirib borish ishi bilan shug'ullanishganki, bu yer yuzida inson zoti yashar ekan, juda zarurlik mohiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Agar "bola yoshdan"ligini inobatga olsak, bu boradagi eng katta mas'uliyat boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Zero, ijtimoiy hayotning barcha qirralari kabi ta'lim jarayonining sifat va samaradorligi ham

assotsiatsiyaga asoslangan bilim, ko‘nikma va malakalarga bog‘liq. 1-4-sinf o‘qish darslarining maqsadi o‘quvchida og‘zaki nutqni takomillashtirish, o‘stirish, buning uchun, avvalo, uning tafakkurini boyitish, so‘z boyligini oshirish, fikrlay olish qobiliyatini shakllantirib, mustaqil fikrini erkin bayon qilishga o‘rgatish hisoblanadi. Shu vazifalarni amalga oshirish esa har bir boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisining bir soatlik o‘quv mashg‘uloti oldida turgan ijtimoiy buyurtma – dars maqsadini ro‘yobga chiqarishini ta‘minlaydi. Zero, o‘qituvchi ta‘lim mazmuni (dars mavzulari) asosida malaka talablari, ya‘ni DTSda belgilangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qo‘yilgan talablarni bajarishi va o‘quvchilarda zaruriy bilim, ko‘nikma, malaka hosil qilishi lozim. Bu esa o‘qituvchidan ta‘limning zamonaviy va ayni paytda samarali usul va vositalarini bilishni, bilganlaridan o‘rinli foydalanishni va bu borada ta‘limga integrativ yondashish orqali o‘quvchi kompetentligini oshirib borishni talab etadi. Boshlang‘ich sinflar ta‘limi jarayonida o‘quv predmetlarini integratsiyalash nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon talablari nuqtayi nazardan ham juda muhim bo‘lib, yangi ijtimoiy maqsadlar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Vaholanki, hozirgi zamon ta‘lim-tarbiya tizimi zimmasida eng katta mas‘uliyat turibdi: ta‘lim oluvchilarimiz intellektual salohiyatga ega bo‘lsin va ular kelajakda yurt nufuzini dunyo standartlari darajasiga ko‘tara oladigan yuqori malakali kadrlar bo‘lib yetishsin.

Maktab umumta‘lim fanlarini tarqoq holda o‘rgatish, ularni bir-biriga uzviy bog‘lab o‘tmaslik o‘quvchilar bilimini mukammal bo‘lishi va borliqni bir butun sistema (tizim) ekanligini tushunib yetishiga to‘sqinlik qiladi, o‘quvchi uchun fan mavzularini anglashda qiyinchilik paydo qiladi. Xullas, bu muammolarning barchasi uchun yechim kaliti o‘qituvchining mahorati va uning integrativ ta‘limni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishiga bog‘liq. Xulosa o‘rnida, Tan olish muhimdirki, olti yoshli birinchi sinf o‘quvchisini rivojlanish darajasi jihatidan maktabgacha tarbiyachi bo‘lib qoladi va u uchun o‘quvchi sifatidagi o‘rni haligacha faoliyatining noma‘lum sohasi bo‘lib qoladi. O.Ya Savchenko ta‘kidlaganidek, "boshlang‘ich maktabda o‘qish bosqichi bola hayotidagi eng muhim davrlardan: uni qanday yashab o‘tkazsa, uning o‘zini o‘zi

anglashga bo'lgan intilishlarini maktab bilan qanday bog'lashi va maktabning talablarini qanday qabul qilishiga ko'p narsa bog'liq...". Bularning barchasi bola hayotining istiqbolini, maktab muvaffaqiyatini va kelajak hayotini belgilaydi. Shu bilan birga, bolaning intellektual, iroda fazilatlarini, xarakter xususiyatlarining rivojlanishi, uning jamiyatdagi rolini ham belgilaydi. Boshlang'ich maktab o'qituvchisining ta'siri bunday hollarda

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
2. Asqarova G., Egamberdiyeva G. Boshlang'ich ta'limda integratsiya. – Namangan, 2007.
3. Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi boshlang'ich ta'lim, ona tili, o'qish, matematika, tibbiyot (1-4-sinf). – T.: Sharq, 2017.
4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – T.: Ilm ziyo, 2009.